



NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




*2023- yil  
yanvar-avgust*



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)




### Xizmatlar hajmi




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(1- sentabr holatiga ko'ra)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(1- sentabr holatiga ko'ra)

Soni, birlikda



2023


62,8%

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan ulushi

58,4%


2021

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2023- yil yanvar-avgust)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2021-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-avgust)

Регион	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>7 074,1</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	2 699,0	111,2	38,2
Zarafshon sh.	941,1	109,0	13,3
G'ozg'on sh.	22,9	108,8	0,3
Karmana t.	1 033,5	105,5	14,6
Konimex t.	159,7	107,3	2,2
Qiziltepa t.	663,4	108,2	9,4
Navbahor t.	405,9	105,1	5,7
Nurota t.	290,9	106,3	4,1
Tomdi t.	81,8	104,9	1,2
Uchquduq t.	230,6	106,6	3,3
Xatirchi t.	545,3	106,0	7,7


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)




— Hajmi, ming so'mda —●— O'sish sur'ati

## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust)



## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi


(yanvar-avgust)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **57,1** foizni, shu jumladan, **16,9** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-avgust)



## Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-avgust)


Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 074,1</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	285,0	124,0	4,0
Moliyaviy xizmatlar	1625,3	118,5	23,0
Transport xizmatlari	1101,1	98,3	15,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	977,7	103,1	13,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	448,8	103,6	6,3
Savdo xizmatlari	2156,4	105,2	30,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	115,2	101,5	1,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	242,7	132,2	3,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	96,3	100,5	1,4
Ijara xizmatlari	91,3	96,0	1,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	111,5	106,7	1,6
Shaxsiy xizmatlar	198,5	103,5	2,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	354,0	111,1	5,0
Boshqa xizmatlar	247,9	107,9	3,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust)



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahri-ning ulushi **59,0** foizni yoki **958,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan Navoiy shahrida yuqori o'sish sur'ati **115,1 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,8 %**.


Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **232,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **100,0 %** ni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)




## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-avgust)



## Avtotransport xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

**2023- yil yanvar-avgust** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **977,7** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,8 %** ni tashkil etdi.



### Navoiy viloyati

977,7

103,1% **Hududlar kesimida transport xizmatlari**

### Qiziltepa

169,4

104,2% (2023- yil yanvar-avgust)

### Navoiy sh.

158,9

104,2 %

### Karmana

148,9

103,7%

### Zarafshon sh.

126,0

103,0%

### Xatirchi

112,3

103,1%

### Navbahor

87,0

102,2%

### Nurota

66,9

101,2%

### Uchquduq

45,9

100,5%

### Konimex

40,5

101,7%

### Tomdi

18,7

102,1%

### G'ozg'on sh.

3,2

102,0%



**2023- yil yanvar-avgust oylarida** avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchi tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **57,1 %**. Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuk tashish xizmatlarining ulushi **42,9** foizni tashkil etdi.


**Hajmi, mlrd. so'mda** ● **O'sish**

**2023- yilning yanvar-avgust** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **81,3 %** ni tashkil etdi.




## Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-avgust)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-avgust)




■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-avgust** oylarida ularning ulushi **96,2** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)




## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust)



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)




2023- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-avgust)




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)

2023 - yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,4 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **85,1** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


(2023- yil yanvar-avgust)






## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)

2023-yilning yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – **88,3** foiz.




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish

## Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-avgust)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)

Navoiy viloyati	91,3
Navoiy sh.	21,5
Zarafshon sh.	11,8
Xatirchi	11,3
Qiziltepa	10,6
Navbahor	9,7
Karmana	8,3
Nurota	7,1
Uchquduq	6,1
Konimex	3,6
Tomdi	1,1
G'ozg'on sh.	0,2


**2021- yilning yanvar-avgustiga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **17,4** mlrd. so'mga oshib, **91,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-avgust** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari-ning ulushi **78,7 %** ni tashkil etdi.




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **52,1** foizini tashkil etadi.


## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)



## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)



2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **154,6** mlrd. so'mga oshib, **354,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Zarafshon shahrining ulushi **74,9** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.